



O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq shoiri, tarjimon
va jamoat arbobi Abdulla Oripov
1941-yilning 21-martida
Qashqadaryo viloyatida tavallud
topgan.

Shoirning birinchi she'riy to'plami
"Mitti yulduz" nomi bilan 1963-yilda nashr etilgan. U
ko'plab asarlar yaratgan, jahon adabiyoti durdonalarini
o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Oripov O'zbekiston
Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifidir.



Taqvimdagi ayrim sanalar nima sababdan boshqa
rangda berilganini bilasizmi?





Xush kelibsan, Yangi yil

Abdulla Oripov

Yana kelding hadyaga to'lib,
Kutmoqdaydik seni intizor.
Qadamingdan minnatdor bo'lib,
Zarra-zarra to'kiladi qor.

Xafasmiz, bobo, yildan ham,
Quvontirdi u bizni, – qancha
Konfetini ko'rishdik baham
Va qo'shiqlar o'rgandik ancha.



Seni aslo unutmagay dil,
Xayr endi, xayr, Yil bobo.
Simobdayin tipirlar ko'ngil,
Yangi yilga endi marhabo!

Bog'chalarga emaklab oz-oz,
Yana kelar yangi qismimiz.
Ulg'ayadi yoshimiz biroz,
O'zgarmaydi ammo ismimiz.



1. She'rda Yil bobo haqida nima deyilgan?
2. She'r kimning tilidan yozilgan?
3. Sizningcha, yil o'tishi bilan nimalar o'zgaradi?
4. Yangi yilga qanday rejalar tuzish mumkin?



She'rdan quyidagi so'zlarga ma'nodosh
so'zlarni topib yozing:


*sovg'a – ..., shodlantirdi – ..., odim – ...,
ko'p – ..., mushtiq – ..., nom – ...*

She'rni ifodali o'qing.

She'rdagi qofiyadosh so'zlarni toping.



Bo'g'inlarni bog'lab, so'zlarni hosil qiling va she'rdan shu so'z ishtirok etgan misralarni o'qing.



Adashgan so'zlarni aniqlang. She'r matnini to'g'rilab o'qing.

Yo'l olamiz ko'chaga qator
Bu yil yana ko'p karra.
Shodlik yo'li, do'stlar, fazokor
Parvozidan ko'p erur zarra.



She'rni ifodali o'qing va yod oling.